

- o'zaro hamkorlikning yangi turlarini rivojlantirish [4].

Shunday qilib, axborot texnologiyalari ta'lim tizimini to'ldiruvchi vositalar emas, balki yangi bilim tartibini va uning institutsional tuzilmalarini o'rnatishning majburiyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аюлов А.М. Электронное обучение как новая парадигма в системе высшего образования. - Вестник КапГУ. Серия педагогика – 2016 - №1 – С. 12-117.
2. Арзуманова Н. В. Использование современных информационных технологий в образовательном процессе. - Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена – 2009 - № 113 – С. 86-90.
3. Ахметова А. Г. Создание информационной образовательной среды Университета: опыт и проблемы. - Вестник Университета – 2013 - №15 – С. 350-353.
4. Бодайбоков Е. Ю. Актуальные проблемы и имеющийся опыт формирования образовательных электронных ресурсов. - Вестник РУДН. Серия Информатизация образования – 2017 - №1 – С. 89-93.

CHET TILLARINI O'QITISH JARAYONIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ZARURATI

Ibragimova Shaxlo Zavkiyevna
TDIU akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning chet tilidan olgan bilimlarini mustahkamlashda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning qo'llash uslublari tahlil qilingan. Chet tilini turli metodlar bilan o'rgatish eng muhim hodisalardan biri sifatida tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Chet tili, axborot texnologiyasi, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar.*

Hozirgi globallashuv davrda innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogik asoslari o'rganilib, o'quv jarayonida zamonaviy-interfaol o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb muammolari biri bo'lib qolmoqda. Ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;
2. O'quvchi-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish oshdi. O'quvchi-yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish hamda, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirilmoqda. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Til o'rganish va o'qitishda innovatsion texnologiyalar kata ahamiyatga ega. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspektida (reading, writing, listening, speaking) qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklersiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir vaqtning

o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot - kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;
- CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi [1].

Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'yin texnologiyasidan foydalanishda o'quvchining o'zini namoyon qilishi, hayotda barqaror o'rnini topishi, o'zini-o'zi boshqarishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zahirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avvalo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi [2].

Hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

- «Muammoli vaziyat yechimi» (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;
- «Quvnoq topishmoqlar» (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;
- «Tezkor javob» (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;
- «Chigil yozdi» («Warm-up exercises») o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish [3];
- «Pantomima» (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;
- «Hikoya zanjiri» (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;
- «Rolli o'yinlar» (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin;
- «Allomalar yig'ini» (Thinkers meeting) shoirilar va yozuvchilarni «taklif qilish» mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;
- «Rasmlar so'zlaganda» (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi;

- Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi [4].

Ta'lim sifatini oshirish uchun texnik vositalar: audio-video, kino materiallari, komp'yuterlar, videoproektor, slaydlar, badiiy asarlardan parchalar; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan interfaol metodlardan o'rinli foydalanib kelishmoqda.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, o'quvchi shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Отабоева, М.Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М.Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — №4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
2. MD Ismatullaeva, EG Yusupovich. THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL 'PROCESS- Euro'ean Journal of Research and Reflection in ..., 2019
3. М. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. «CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH». Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
4. Irgasheva N. D. INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 1. – С. 21-24.

VIRTUAL VA TO'LDIRILGAN REALLIK ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SIFATIDA

Jomurodov D.M.

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: *Maqolada virtual muhitda elektron ta'lim resurslarini yaratish, virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalarining imkoniyatlari tahlil qilingan. Mazkur texnologiyalardan ta'lim tizimida foydalanish afzalliklari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *virtual reallik, to'ldirilgan reallik, AKT, IT, texnologiya*

Zamonaviy ta'lim tizimida eng ilg'or texnologiyalardan foydalanish muhim degan fikr nafaqat zamonaviy tadqiqotchilar, balki deyarli har birimizning ongimizni tark etmaydi. Tilshunoslik va psixologiya sohasidagi mutaxassislarning fikricha, yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun eng qulay sharoitlar bolalik va o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Ammo qiziqishning yetishmasligi, fikrlar tarqoqligi va diqqatni qiyin narsalarga qarata olmaslik har qanday yoshda ham samarali ta'lim olishimizga imkon bermaydi. Zamonaviy ta'lim tizimi esa bu borada boshqa ko'ngilochar sohalar bilan azaldan raqobatlashib keladi va talabalar diqqatini yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga jalb qilish imkonini beradigan idrok etish mexanizmlariga muhtoj. Zero, samarali o'rganishga qiziqish avvalo shakllantirilishi, keyin esa qo'llab-quvvatlanishi kerak.